

## Pazandalik mahorati

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida 2018 yil 13-dekabr kuni Qovoq sayli o'tkazildi. Qovoq saylida QSXET fakulteti pazandalik mahoratini namoyish etganligi uchun Oliy o'rin I-o'rinni qo'lga kiritdi. Institutimizning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori Q.Shavozov tomonidan taqdirlandi. Shu bilan birga bu qovoq saylida har bir talaba o'zining hissasini qo'shdi. Bu sayilda barcha taomlar va pishiriqlar qovoqdan tayyorlandi. Institutimiz rektori har bir fakultetda pishirilgan taomlar qanday usulda va qanday masalliqdan tayyorlangani haqida batafsil so'radilar. Talaba qizlar bu savollarga to'liq javob berdilar. Bu sayilda nafaqat pazandachilikda, balki Karven san'atida ham qizlar o'z mahoratlarini namoyon etdilar. Qovoq sayli barchaga ma'qul keldi va ko'tarinki ruhda o'tdi.



**“QSXET” fakulteti xotin-qizlar uyushmasi raisi A.T.Sanbetova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**